

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Ro'yxatga olindi:**

Nº \_\_\_\_\_  
2022 yil " \_\_\_\_ "

**" TASDIQLAYMAN"**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
\_\_\_\_\_  
O.N.Bozorov  
2022 yil " \_\_\_\_ "

***UMUMIY VA TARIXIY GEOLOGIYA  
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI  
(SILLABUSI)***

**Bilim sohasi:** 700 000-Ishlab chiqarish-texnik soha

**Ta'lif sohasi:** 710 000-Muhandislik ishi

**Ta'lif yo'nalishi:** 60721600 – “Foydali qazilma konlari geologiyasi,  
qidiruv va razvedkasi (kon turlari  
bo'yicha: neft va gaz konlari)”



**Qarshi – 2022**



<b>Fan (modul) kodi</b> UTGE1207	<b>O'quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 1/2	<b>ECTS krediti</b> 4/4		
<b>Fan (modul) turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek	<b>Haftalik dars soati</b> 4			
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'u-lotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>		
	"Umumiylar va tarixiy geologiya"	120	120		
<b>2.</b>			<p><b>I.Fanning mazmuni.</b></p> <p><b>1.1.Fanni o 'qitishning maqsad va vazifalari:</b></p> <p>Fanning o'qitishdan maqsad - fanni o'rganuvchi talabalar Yerning ichki va tashqi tuzilishini, Yer po'stining tarkibi va taraqqiyotini, quyosh turkumi va uning sayyoralari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishlari, shuningdek, Yer po'stini tashkil etuvchi minerallar va tog' jinslari, geoxronologiya, zilzila, tektonik harakatlar va tektonik strukturalar, magmatizm va metomorfizm jarayonlari va ularning sabablarini bilish, yer yuzasida kechayotgan ekzogen jarayonlar va Yer osti va ustki suvlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdir.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari talabalar tomonidan - biz yashayotgan Yer va uning paydo bo'lishi, tuzilishini, o'zining millionlab yillik uzoq o'tmishida qanday o'zgarishlarga uchraganligiini, Yerning ostki va ustki qismida kechadigan geologik jarayonlar ta'sirida o'zgaradigan Yer yuzining shakllari va ularning o'zgarishini, Yerning fizik va kimyoviy xossalarni, qatlamlarni, uni tashkil etgan mineral va tog' jinslarini o'zlashtirishdir.</p> <p>Nazariy qismdan so'ng amaliy mashg'ulotlar davrida talabalar auditoriya sharoitida olgan bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, tabiiy sharoitda hodisalarini tushunishga va hududning tuzilishini o'qishga erishadilar.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. <i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini boyitish usulla-rini qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir. Jumladan, umumiylar va tarixiy geologiyaning asoslari: Quyosh turkumining tuzilishi, tarkibi va paydo bo'lish haqidagi kosmogonik va katastrofik gipotezalar; Yerning ichki tuilishi, zichligi, harorati, radioaktivligi; minerallar va tog' jinslari; endogen va ekzogen geologik jarayonlar; tarixiy geologiyaning to 'liq tavsiflari;</li> <li>- umumiylar va tarixiy geologiyaning asosiy tushunchalari haqidagi ko'nikmalarini hosil qilishdir.</li> </ul>		

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **2.1.Fan tarkibi mavzulari:**

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soat</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
<i>1-semestr</i>		
1-ma'ruza	<i>1-modul. Fanning mazmuni, vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.</i>	2
1-ma'ruza	Kirish. Geologiya fani haqida umumiy tushuncha. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Fanning rivojlanish tarixi.	2
2-ma'ruza	<i>2-modul. Quyosh turkumining tuzilishi va tarkibi. Quyosh turkumining paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik va katastrofik gipotezalar.</i>	2
2-ma'ruza	Koinot va galaktika. Quyosh tizimi va uning sayyoralari haqida umumiy ma'lumotlar. Quyosh tizimining mitti jismlari. Quyosh tizimi. Quyosh tizimi haqida ma'lumot.	2
3-ma'ruza	<i>3-modul. Yerning ichki tuzililishi, zichligi, harorati va radioaktivligi.</i>	4
3-ma'ruza	Yerning umumiy tavsifi. Yerning qobiqlari. Yerning seysmografik modeli. Geosferalar. Yerning issiqlik maydoni. Radioaktivlik to'g'risida tushuncha.	2
4-ma'ruza	Yer po'stining kimyoviy tarkibi. Minerallar haqida umumiy ma'lumotlar. Minerallarning tasnifi. Minerallarning tabiiy xossalari.	2
5-ma'ruza	<i>4-modul. Geologiyada vaqt. Geoxronologik jadval.</i>	2
5-ma'ruza	Yerning yoshi va geoxronologik shkala. Nisbiy geoxronologiya. Tog' jinslarining yoshini aniqlashda radiologik usullar.	2
5-ma'ruza	<i>5-modul. Endogen geologik jarayonlar. Magmatizm va vulkanizm. Magmatik tog' jinslari.</i>	10
6-ma'ruza	Endogen geologik jarayonlar. Vulkan qurilmalari. Vulkanizm va vulkan mahsulotlari. Vulkan turlari. Magmatizm haqida umumiy ma'lumotlar	2
7-ma'ruza	Tog' jinslari. Magmatik jinslarning tasnifi va tarkibi. Magmatik jinslarning xossalari. Magmatik jinslarning genetik turlari. Cho'kindi jinslarning tasnifi va mineral tarkibi. Cho'kindi jinslarning xossalari. Cho'kindi jinslarning turlari.	2
8-ma'ruza	Zilzila haqida umumiy ma'lumotlar. Zilzilalar kuchini o'lchash shkalalari. Zilzilalarning tasnifi. Zilzila oqibatlari	2
9-ma'ruza	Tektonik harakatlar haqida umumiy ma'lumotlar. Tog' jinslarining deformatsiyasi. Tektonik strukturalar.	2
10-ma'ruza	Metamorfizm haqida umumiy ma'lumotlar. Metamorfizm omillari. Metamorfizm turlari. Metamorfik jinslarning hosil bo'lish sharoitlari. Metamorfik jinslarning xossalari. Metamorfik jinslarning turlari.	2
11-ma'ruza	<i>6-modul. Ekzogen jarayonlar. Nurash.Shamolning geologik ishi.</i>	10
11-ma'ruza	Ekzogen jarayonlar haqida umumiy ma'lumotlar. Nurash jarayonlari. Elyuviy va nurash po'sti. Shamolning geologik ishi haqida umumiy ma'lumotlar. Shamolning geologik ishi. Suv oqimlari.	2

1	2	3
12-ma'ruza	Daryo vodiylarining tuzilishi. Oqar suvlarning geologik ishi. Vaqtinchalik suv oqimlarining geologik ishi. Doimiy oqar suvlar - daryolarning geologik ishi.	2
13-ma'ruza	Ko'lllar. Ko'llarning geologik faoliyati. Botqoqliklar. Botqoqliklarning geologik faoliyati.	2
14-ma'ruza	Yer osti suvlarning turlari va hosil bo'lishi. Yer osti suvlarning kimyoviy tarkibi. Yer osti suvlarning geologik ishi.	2
15-ma'ruza	Dengiz va okeanlarning hayvonot va o'simlik dunyosi. Dengizlarning geologik ishi. Dengiz va okeanlardagi mexanik harakatlar. Dengiz va okeanlarda cho'kindilarning to'planishi. Okeanlar haqida umumiy ma'lumotlar va uning tubini tuzilishi. Materiklarning suvosti chetlari. Okean suvlarning harorati, bosimi, sho'rligi va kimyoviy tarkibi.	2
<i>1-semestr bo'yicha jami:</i>		<i>30</i>
<i>2-semestr</i>		
<i>6-modul. Tarixiy geologiya fani vazifalari, bo'limlar va izlanish usullari.</i>		
16-ma'ruza	Tarixiy geologiya fanining vazifalari, bo'limlari va izlanish usullari yo'naliishlari. Geoxronologiya, stratigrafiya, paleografiya va paleotetonika.	2
17-ma'ruza	Stratigrafik birliliklarning turlari va ularning bo'linish mezonlari. Nisbiy va absolyut geoxronologiya.	2
18-ma'ruza	Xalqaro stratigrafik jadvalni yuqori tabaqlari (eratema, sistema, bo'lim, yarus, zona) haqidagi tushunchalar va h.k. Stratigrafik kesmalarни tabaqlash va taqqoslashning ko'p sonli usullari.	2
<i>7-modul. Geotektonika va geodinamika asoslari, litosfera plitalari.</i>		
19-ma'ruza	Geodinamika. Geodinamika. Umumiy va hududiy geotektonika.	2
20-ma'ruza	Geodinamik jarayonlar (Riftogenez, Spreding, Subduksiya va Kolliziya shaklida ifodalaniishi).	2
21-ma'ruza	Tarixiy geodinamika. Yer rivojlanishini davriylash.	2
22-ma'ruza	Litosfera plitalari tektonikasi qarashlarining paydo bo'lishi, okean po'stining shakllanishini va uning keyinchalik qit'a turi ga aylanishini yangicha mobilistik talqin etish imkoniyati.	2
<i>8-modul. Qadimgi Yer qobig'ininn shakllanishi.</i>		
23-ma'ruza	Yerning 4,6 mlrd. yillik tarixida arxey bosqichi, Pangeya, Monogeya, Rodiniy, Gondvana qit'alarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va parchalanishi.	2
24-ma'ruza	Arxey va erta proterozoy bosqichi. Geodinamikasi. Iqlimi. Foydali qazilmalari.	2
25-ma'ruza	O'rta va kechki proterozoy bosqichi. Geodinamikasi. Paleogeografiyasi. Iqlimi. Organik dunyosi. Foydali qazilmalari.	2
26-ma'ruza	Erta paleozoy bosqichi. Geodinamikasi. Paleogeografiyasi. Organik dunyosi. Foydali qazilmalari.	2

1	2	3
27-ma'ruza	Kechki paleozoy bosqichi. Geodinamikasi. Paleogeografiyasi. Iqlimi. Organik dunyosi. Foydali qazilmalari.	2
28-ma'ruza	Mezozoy erasi. Geodinamikasi. Paleogeografiyasi. Iqlimi. Organik dunyosi. Foydali qazilmalari.	2
29-ma'ruza	Kaynozoy erasi. Geodinamikasi. Paleogeografiyasi. Iqlimi. Organik dunyosi.	2
29-ma'ruza	Odam evolyutsiyasi. Foydali qazilmalari.	2
<i>2-semestr bo'yicha jami:</i>		30
<i>Hammasi:</i>		60

## 2.2. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'u-lotlarida olgan bilim va ko'nikmalarni misol va masalalar yechish bilan mustah-kamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo'lib mashq qilish yo'li bilan va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishslashda darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni, uslubiy qo'llanmalarni, tarqatma va ko'rgazmali ashylarni ahami-yati kattadir.

№	<b>Mavzular</b>	<b>Soat</b>	
<i>1-semestr</i>			
1-amaliy ish	Jins hosil qiluvchi minerallarning fizik xususiyatlari. Minerallarning qattiqligi, ulanish tekisligi va sinishi.	2	
2-amaliy ish	Minerallarning rangi va chizig'ining rangi, yaltiroqligi, tiniqligini o'rganish.	2	
3-amaliy ish	Minerallarning solishtirma og'irligi, magnitlik xususiyati, mo'rtligi, pachoqlanishi va qayishqoqligini o'rganish.	2	
4-amaliy ish	Minerallarning kimyoviy tarkibi bo'yicha turlari. Sof tug'-ma elementlar va sulfidlar.	2	
5-amaliy ish	Oksid, gidrooksid, galoid va sulfat minerallarni o'rganish.	2	
6-amaliy ish	Karbonat, fosfat va silikat minerallarni o'rganish.	2	
7-amaliy ish	Geoxronologik jadval.	2	
8-amaliy ish	Magmatik tog' jinslari. Ularning strukturasi, teksturasi va yotish shakllari.	2	
9-amaliy ish	Nordon, o'rta, asosli va o'ta asosli magmatik tog' jinslarini o'rganish.	2	
10-amaliy ish	Cho'kindi tog' jinslari, ularning strukturasi, teksturasi, g'o-vakligi, rangi va solishtirma og'irligi.	2	
11-amaliy ish	Bo'lakli, organogen va ximogen cho'kindi tog' jinslar.	2	
12-amaliy ish	Metamorfik tog' jinslari. Ularning strukturasi va teksturasi.	2	
13-amaliy ish	Metamorfik tog' jinslarining tasnifi.	2	
14-amaliy ish	Geologik xaritalar, ularning turlari va masshtabi.	2	

1	2	3
15-amaliy ish	Geologik kesma va stratigrafik ustun tuzish usullari. Tog' kompasi.	2
<i>1-semestr bo'yicha jami:</i>		30
<i>2-semestr</i>		
1-amaliy ish	Yer qobig'ining struktura elementlari.	2
2-amaliy ish	Platforma va serharakat mintaqalar.Ularni yozuvsiz xarita-ga tushirish.	2
3-amaliy ish	Yuqori paleozoy davrlarining organik dunyosi bilan tani-shish.	2
4-amaliy ish	Kembriy davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
5-amaliy ish	Ordovik davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
6-amaliy ish	Silur davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
7-amaliy ish	Devon davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
8-amaliy ish	Toshko'mir davrining paleogeografik xaritasi bilan tani-shish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
9-amaliy ish	Perm davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
10-amaliy ish	Mezazoy erasi davrlarining organik dunyosi bilan tani-shish.	2
11-amaliy ish	Trias davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
12-amaliy ish	Yura davrining paleogeografik xaritasi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
13-amaliy ish	Kaynazoy erasi davrining organik dunyosi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	2
14-amaliy ish	Paleogen davrining organik dunyosi bilan tanishish. Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	
15-amaliy ish	Neogen davrining organik dunyosi bilan tanishish.Kontur xaritaga tushirish, bo'yash va ta'riflash.	
<i>2-semestr bo'yicha jami:</i>		30
<i>Hammasi:</i>		60

### **2.3.Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*O'quv rejalarida laboratoriya ishlari kiritilmagan.*

### **2.4. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka taribda tegishli mavzular bo'yicha topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi

kerak.

Kurs ishi talabalarni fan bo'yicha olgan barcha bilimlarini jamlagan holda mustaqil ravishda berilgan mavzuni o'zlashtirib mukkamal tahlil etishga bag'ishlangan.

Kurs ishi talaba tomonidan taqdimot shaklida tayyorlanib o'quv guruhi oldida himoya qilinadi (ma'ruza, savol - javoblar).

Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejasida rejalahtirilgan bo'lib, quyida kurs ishini bajarish uchun mavzulari berilgan:

1. Ko'l va botqoqlik yotqiziqlari
2. Metamorfizm sabablari
3. Yerning tashqi qobiqlari
4. Yer po'stining kimyoviy tarkiblari
5. Zilzilalarning geografik tarqalishi
6. Yerning issiqligi va magnitlik xususiyati
7. Yer po'sti va mantiya
8. Daryolarning geologik ishi
9. Ko'l va botqoqliklarning geologik ishi
10. Jins yaratuvchi minerallarning fizik xususiyatlari
11. Dengiz yotqiziqlari
12. Yer po'stining tebranma harakati
13. Neft va uning hosil bo'lishi
14. Muzliklarning geologik ishi
15. Yer osti suvlarining hosil bo'lishi
16. Yerning atmosfera qobig'i
17. Vulqon va uning mahsulotlari
18. Geotektonik gipotezalar
19. Yerning ichki tuzilishi
20. Yoriq hosil qiluvchi harakatlar
21. Lyos va uning hosil bo'lishi
22. Burma hosil qiluvchi harakatlar
23. Quyosh tuzimining tuzilishi
24. Quyosh turkumining paydo bo'lishi haqidagi gipotezalari (Djins, Kant-Laplas, Fesenkov, Shmidt)
25. Yer qobig'ining tuzilishi va uning turlari (kontinent va okean qobiqlari)
26. Magmatik tog' jinslari va ularning tasnifi (jadval)
27. Metamorfik tog' jinslari va ularning tasnifi (jadval)
28. Cho'kindi tog' jinslari va ularning tasnifi (jadval)
29. Vulkanizm va vulqon turlari
30. Magmatik tog' jinslarining yotish shakllari (fokkolit, bottolit, shtok, lakkolit...)
31. Atmosfera va uning tuzilishi
32. Nurash jarayonlari (mexanik va kimyoviy nurash)
33. Shamolning geologik ishi
34. Daryoning geologik ishi (eroziya, transportirovka va akkumulyasiya)
35. Daryo vodiysining rivojlanish bosqichlari
36. Terassalar xili (akkumulyativ, erozion, sokol)
37. Ko'l va botqoqliklarning genetik turlari
38. Botqoqliklarning geologik ishi
39. Yerning kimyoviy tarkibi

40. Minerallarni fizik xossalari (rangi, shaffofligi, og'irligi)
41. Minerallarning kimiyoviy tasnifi (sof elementlar, sulfidlar, oksidlar va gidrooksidlar, galogen birikmalar, karbonatlar, sulfatlar, fosforit, silikatlar)
42. Tog' jinslarining burmalar shaklida yotishi (plifikativ dislokatsiya)
43. Tog' jinslarining singan holatda yotishi (dizyunktiv dislokatsiya)
44. Yer va tog' jinslarining nisbiy yoshini aniqlash usullari
45. Yer va tog' jinslarining mutlaq (absolyut) yoshini aniqlash usullari
46. Yer sharida suvning aylanma harakati va uning energiyasi
47. Vaqtincha oqar suvlarining ishi (prolyuvial tog' jinslari)
48. Atmosferaning issiqlik balansi
49. Dengiz suvining kimiyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari
50. Dengizdagi emirilish jarayonlari
51. Dengiz cho'kindilari (shel'f, batial, abissal cho'kindilar)
52. Umumiy va tarixiy geologiya fanining rivojlanish tarixi
53. Umumiy va tarixiy geologiya fanining bo'limlari
54. Geoxronologik (stratigrafik) shkala
55. Nisbiy va mutlaq geoxronologiya
56. Mexanik, kimiyoviy va biologic nurash
57. Yer osti suvlarining geologic ishi
58. Muzliklarning klassifikatsiyasi
59. Okean suvlarining xususiyatlari
60. Metamorfik jarayonlar
61. Tog' jinslarining deformatsiyasi
62. Ichki va tashqi planetalar
63. Asteroidlar, kometalar va meteorlar
64. Erning gravitatsion va magnit maydoni
65. Yer qobig'ining moddiy tarkibi (minerallar)
66. Yer qobig'ining moddiy tarkibi (tog' jinslari)
67. Silikatli va alyumosilikatli minerallar
68. Yerning yoshini anaqlash usullari
69. Tektonik strukturalar
70. Litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining shakllanish tarixi va hozirgi mazmuni
71. Effuziv magmatism – vulkanizm
72. Magmatizm – inturiziv tanalarning yotish shakllari
73. Arxey va erta proterazoy bosqichi
74. Yuqori paleozoy bosqichi
75. Quyi paleozoy bosqichi
76. Mezazoy erasi
77. Kaynozoy erasi
78. Xalqaro stratigrafik jadval, stratigrafik tabaqlash va taqqoslash usullari
79. Geotektonika va geodinamika asoslari, litosfera plitalari
80. Tarixiy geodinamika. Yerning rivojlanishini davriylash
81. Yer sharining asosiy tektonik tuzilmalari
82. Qadimgi Yer qobig'ining shakllanishi.

### **III. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

#### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

##### **1-semestr**

1. Koinotning paydo bo'lishi
2. Quyosh tizimi (Quyosh va uning parmatrlari, Quyosh tizimining tuzilishi, ichki va tashqi planetalar)
3. Asteroidlar, kometalar va meteorlar
4. Yerning shakli va ichki tuzilishi
5. Yer po'stining kimyoviy va mineral tarkibi
6. Yerning gravitatsion, magnit va issiqlik maydoni
7. Yer qobig'ining moddiy tarkibi (minerallar)
8. Tog' jinslari haqida umumiy ma'lumotlar. Magmatik jinslar, tasnifi, tarkibi, xossalari va genetik turlari. Magmatizm
9. Vulqon qurilmalari, mahsulotlari va turlari
10. Tektonik harakatlar va tektonik strukturalar (tektonik harakatlar, tog' jinslarining deformatsiyasi, tektonik strukturalar)
11. Litosfera plitalari tektonikasining nazariyasini (litosfera plitalari tektonikasi nazariyasining shakllanish tarixi va hozirgi zamon mazmuni, yer po'stining strukturalari, litosfera plitalari tektonikasi fan tizimi sifatida)
12. Cho'kindi tog' jinslari va ularning tasnifi (umumiy ma'lumotlar, tasnifi, mineral tarkibi, xossalari va turlari)
13. Metamorfik tog' jinslarining tasnifi (hosil bo'lish sharoitlari, xossalari va turlari)
14. Metamorfizm (omillari va turlari)
15. Zilzila (zilzila haqida umumiy ma'lumotlar, zilzila kuchini o'lchash shkallari, zilzilalarning yer sharida tarqalishi)
16. Zilzilalarning paydo bo'lish sabablari va genetik turlari, zilzila oqibatlari va uni bashorat qilish)
17. Effuziv magmatizm - vulkanizm (vulqon qurilmalari, vulkanizm, vulqon mahsulotlari
18. Vulqon turlari. Balchiqli vulqonlar
19. Magmatizm va metamorfizm (magmatizm haqida umumiy ma'lumotlar, intruziv tanalarning yotish shakllari, metamorfizm haqida umumiy ma'lumotlar, metamorfizm omillari, metamorfizm turlari)
20. Ekzogen jarayonlar haqida tushuncha. Nurash va uning turlari
21. Suffoziya va karst hodisalari
22. Shamolning geologik ishi
23. Suv oqimlarining geologik ishi
24. Yer osti suvlarning geologik ishi
25. Yer osti suvlarning turlari hosil bo'lishi va tarkibi.
26. Tog' jinslaridagi suvlarning turlari
27. Sizot suvlarning rejimi va harakatlanish qonuniyatları
28. Muzliklar va ularning geologik ishi
29. Dengiz va okeanlarning geologik ishi
30. Ko'l va botqoqliklarning geologik ishi

**2-semestr**

1. Tarixiy geologiya fanining qisqacha rivojlanish tarixi
  2. Tarixiy geologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar
  3. Stratigrafiya va geoxronologiya
  4. Tarixiy-geologik tahvilning asosiy usullari
  5. Arxeygacha bo'lgan tarix va Yerning paydo bo'lishi
  6. Arxey tarixi
  7. Erta proterazoy (2,5-1,65 mlrd yil avval)
  8. Kechki proterazoy
  9. Vend davri
  10. Kembriy davri
  11. Ordovik davri
  12. Silur davri
  13. Devon davri
  14. Toshko'mir davri
  15. Perm davri
  16. Trias davri
  17. Yura davri
  18. Bo'r davri
  19. Paleogen davri
  20. Neogen davri
  21. To'rtlamchi (antropogen) davri
  22. Stratigrafiyaning asosiy qoidalari
  23. Xalqaro stratigrafik jadval
  24. Stratigrafik tabaqlash va taqqoslash usullari
  25. Geodinamik sharoitlar va jaryonlar
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan refe-ratlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari.**

O'quv rejada o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari kiritilmagan. Umumiy va tarixiy geologiya fanidan 1-haftalik tanishuv ko'nikma hosil qilish uchun malakaviy amaliyot o'quv rejada keltirilgan. Malakaviy amaliyot kafed-rada ishlab chiqilgan dastur asosida o'tiladi va hisobot amaliyotchilar tomonidan taqdimot ko'rinishida himoya qilinadi.

5.

**IV.Ta'lif texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyiham;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyiham.

6.	<p><b>Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.</p>
7.	<p><b>Talabalar bilimini nazorat qilish uchun baholash mezoni</b></p> <p>"Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018-yil 9-avgustdag'i 19-2018 son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan davlat ro'yxati-dan o'tkazilgan.</p> <p>Ushbu Nizom asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizi-mi orqali baholashdan maqsad O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ – 3735-son "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ta'lif sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning "Umumiy va tarixiy geologiya" fanini o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.</p> <p><i>"Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan tuzilgan talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jadvalining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) talabalarda Davlat ta'lif standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish;</li> <li>b) fanning asosiy tushunchalarini talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;</li> <li>c) talabalarda mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish;</li> <li>d) talabalar bilimini holisona va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish.</li> </ul> <p><i>"Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi.</i></p> <p>Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lif standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:</p> <p><i>JORIY NAZORAT – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli.</i> Joriy nazorat "Umumiy va tarixiy geologiya" fanining xususiyatidan kelib chiqqan holda, amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, nazorat ishi, mustaqil ish vazifalarini tekshirish shakllarda o'tkaziladi.</p> <p><i>ORALIQ NAZORAT – semestr davomida "Umumiy va tarixiy geologiya" fani ishchi o'quv dasturining tegishli (bir - necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi.</i> "Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan oraliq nazorati bir semestrda bir marta yozma shaklda o'tkaziladi;</p> <p><i>YAKUNIY NAZORAT – semestr yakunida "Umumiy va tarixiy geologiya" fani bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli hisoblanadi.</i> Yakuniy nazorat "Umumiy va tarixiy geologiya" fanning barcha bo'limlarini o'z ichiga qamrab olgan test topshiriqlari asosida</p>

test o'tkaziladi yoki fanning tushuncha va iboralarga asoslangan "og'zaki" shaklida o'tkazilishi ham mumkin.

Professor-o'qituvchilar tomonidan "Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra yig'ilishlarida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

"Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan yakuniy nazorat dekanat tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida o'tkaziladi. Yakuniy nazoratni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

### **Fan bo'yicha baholash jadvali**

Kurs	Semestr	Semestrda fanga ajratilgan soat	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar	Tajriba mashg'ulotlar	Mustaqil ish soati	Nazorat turlari							
							Ab-auditoriya baholari MB-mustaqlil ish baholari	Jami soat % hisobida	JN	ON	$\Sigma JN+ON$	Saralash baho	YaN	YaN ni otkazish shakli
1	1	90	30	30	120	Ab Mb	50 50	5	5	5	3	5	0 yoki t	5

### **"Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan reyting ishlanmasi**

T/r	Nazorat turlari	Soni	Baho	Jami baho
<i>1.JN umumiy 5 baho</i>				
1.1.	Amaliy mashg'ulotlarni bajarish	10	3-5*	5
<i>2.ON umumiy 5 baho</i>				
2.1.	1-oraliq nazorat, yozma ish (3 ta savol)	1	3-5**	5
2.3.	Mustaqil ish	2	3-5**	5
<i><math>\Sigma JN+ON</math></i>				
<i>3.YAN</i>				
3.1.	Yakuniy nazorat, test 30 ta test topshirig'I yoki yozma ish (5 ta savol)	1	5	5
<i>Jami:</i>				

*"Umumiy va tarixiy geologiya" fanidan baholash tartibi va mezonlari.*

"Umumiy va tarixiy geologiya" fani bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 5 baho nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

*Yakuniy nazoratga – 5 baho.* Yakuniy nazoratda 5 ta topshiriq bo'lib, shundan 3 ta nazariy va 1 ta amaliy topshiriq, 1 ta mustaqil ta'lidan beriladi, jumladan:

-auditoriyada o'tilgan mavzular bo'yicha 3 ta nazariy va 1 ta amaliy, mustaqil ishlar mavzulari bo'yicha 1 ta nazariy topshiriqlar beriladi.

### *Baholash mezonlari*

\* Baholash quyidagi na'munaviy mezonlarga asoslanadi:

#### *5 - (a'lo) baho:*

Xulosa va qaror qabul qilish.

Ijodiy fikrlash olish.

Mustaqil mushohada yurita olish.

Olgan bilimlarni amalda qo'llash olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish, aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

#### *4 - (yaxshi)baho:*

Mustaqil mushohada yurita olish.

Olgan bilimlarni amalda qo'llash olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish, aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

#### *3 - (qoniqarli)baho:*

Mohiyatini tushunish.

Bilish, aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

#### *2 - (qoniqarsiz)baho:*

Dasturni o'zlashtirmaganlik.

Fanning mohiyatini bilmaslik.

Anniq tasavvurga ega bo'lmaslik.

Mustaqil fikrlay olmaslik.

1.1. Har bir juftlik darsiga ajratilgan baho maksimal 5 bilan baholanadi.

Joriy nazoratning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabaning mustaqil ish savollariga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi, misollar yechimlari to'plami) asosida baholanadi.

\*\*2.1. Oraliq baholash yozma tartibda o'tkazilib, unda 3 ta savolga javob berilish so'raladi. Jumladan shulardan 2 tasi nazariy va 1 tasi amaliy savollar. Har bir savolga to'liq javob uchun 5 baho qo'yiladi. Bunda savol uchun:

- agar savollar mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, - 5 baho;
- savollarga umumiy javob berilgan, ammo ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa, - 4 baho;
- savollarga javob yozishga harakat qilingan, chalkashishlar bo'lsa, -3 baho;
- savollarga umuman javob yozilmagan yoki savollarda chalkashishlar bo'lsa, -2 baho.

Oraliq nazoatning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabaning mustaqil ish savollariga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi) himoyasi asosida qo'yiladi.

*Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma javob berishi lozim.*

Har bir savolga 5 baho ajratiladi.

- agar savollarning mohiyati to'la ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa, savolga 5 baho qo'yiladi;
- savollarga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari bor bo'lsa, savolga 4 baho qo'yiladi;
- berilgan savollarda javoblar umumiy va kamchiliklar ko'proq bo'lsa, 3 baho qo'yiladi;
- savollarga to'g'ri javoblar bo'lmasa, kamchiliklar ko'p bo'lganda va to'liq bo'lmasa, 2 baho qo'yiladi.

*Agar YaN test shaklida o'tkazilsa:*

har bir variantda 30 tadan test topshiriqlari beriladi

- agar test savollarning 26-30 tasini to'g'ri topsa, savolga 5 baho qo'yiladi;
- agar test savollarning 21-25 tasini to'g'ri topsa, savolga 4 baho qo'yiladi;
- agar test savollarning 17-20 tasini to'g'ri topsa, savolga 3 baho qo'yiladi;
- agar test savollarning 1-16 tasini to'g'ri topsa, 2 baho qo'yiladi.

*"Umumiyl va tarixiy geologiya" fanidan nazorat turlarini o'tkazish muddati.*

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan har bir (ikki) juftlik darsda baholanib boriladi. Oraliq nazorat kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat grafiklari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida dekanat tomonidan tuzilgan YaN grafigi asosida o'tkaziladi.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash bahosidan kam baho to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddatda topshirish uchun ruxsat beriladi va belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladigan grafik asosida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlari qabul qilinadi.

	<p>Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan baholaridan biri qoniqarsiz deb topilsa u yakuniy nazorat ishiga kiritilmaydi.</p> <p>Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekanat tomonidan qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida "Umumiy va tarixiy geologiya" fanini o'zlashtira olmagan talaba to'g'risida fakultet dekaniga ma'lumot beriladi.</p> <p>Talaba "Umumiy va tarixiy geologiya" fani bo'yicha nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, u nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lмаган таркибда апеллясиya комissiyasi tashkil etiladi.</p> <p>Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.</p> <p>Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinadi.</p>
	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1.Долимов Т.Н., Троицкий В.И. Эволюцион геология. -Т.: ЎзМУ, 2005.</p> <p>2.Короновский Н.В. Общая геология. -М.: изд. КДУ, 2006. -528 б.</p> <p>3.Н.В.Короновский, В.Е.Хайн, Н.А.Ясамаснов. Историческая геология. -М.: Издательский центр «Академия», 2011. -464 б.</p> <p>4.Соколовский А.К. Общая геология: в 2 тт. /Под редакцией профессоров А.К.Соколосского. -М.: изд. КДУ, 2006. -448 б. Т.1.Общая геология: учебник /под редакцией профессора А.К.Соколовского.</p> <p>5.Соколовский А.К. Общая геология: в 2 тт. /Под редакцией профессоров А.К.Соколосского. -М.: изд. КДУ, 2006. -208 б. Т.2.Общая геология: учебник /под редакцией профессора А.К.Соколовского.</p> <p>6.Sunnatov Z.U., Xolbayev B.M., Norinov F.Q. Umumiy va tarixiy geologiya (1-qism). Umumiy geologiya. -O'quv qo'llanma.-Qarshi: "Intellekt", 2022. -367 b.</p> <p>7.N.Sh.Tulyaganova, M.B.Ashirov, D.F.Adilov, M.S.Karabayev, D.M. Ilyasova.Umumiy va tarixiy geologiya.O'quv qo'llanma.-Toshkent:"Innovatsiya-Ziyo", 2020.-280b.</p> <p>8. N.Sh.Tulyaganova. Umumiy va tarixiy geologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar to'plami. 1 qism. -Т.: «Voris» nashriyoti, 2013.</p> <p>9. Tulyaganova N.Sh. Umumiy va tarixiy geologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar to'plami. 1 qism. -Т.: «Voris» nashriyoti, 2013.</p> <p>10. Toshmuxamedov B.T. Umumiy geologiya. Darslik.-Т.:Noshir, 2011. -328 b.</p> <p>11.Xolbayev B.M. Geologiya. O'quv qo'llanma. -Qarshi: "Intellekt", 2021. -302 b.</p> <p>12.Чинникулов Х., Жўлиев А.Х. Умумий геология. Дарслик. -Т.: "МРИТИ" ДК, 2011. -396 б.</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>13. Зокиров Р.Т., Ходжаев Х.С. Умумий геологиядан лаборатория машфулотлари бўйича методик қўлланма (минераллар). -Т.: ТошДТУ, 2000.</p> <p>14. Зокиров Р.Т., Тошмуҳамедов Б.Т. Умумий геологиядан лаборатория машфулотлари бўйича услубий қўлланма (тоғ жинслари). -Т.: ТошДТУ, 2000.</p> <p>15. Комлева З.В. Геология и гидрогеология. Методическое пособие. -Т.: ТашГТУ, 2016.</p> <p>16. Комлева З.В. Общая и историческая геология. Методическое пособие. -Т.: ТашГТУ, 2014.</p>

	<p>17. Халисматов Э.Х. Зокиров Р.Т. Структуралар геологияси ва геотектоник изланишлар. -Т.: ТошДТУ, 2004.</p> <p>18. Холматов А.Х., Султонмуродов Ш. Умумий геологиядан амалий машғулотлар. -Т.: “Ўзбекистон”, 2002.</p> <p>19. Xolbaev B.M. Umumiy va tarixiy geologiya (2-qism). Tarixiy geologiya. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma.-Qarshi: QarMII, 2021. - 34 b.</p> <p>20. Xolbaev B.M. Umumiy va tarixiy geologiya fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. -Qarshi: QarMII, 2021. -16 b.</p> <p>21. Xolbaev B.M. Mustaqil ishlarni bajarish, yozish va rasmiy lashtirish tartiblari. Uslubiy qo'llanma. - Qarshi: QarMII, 2021. -34 b.</p> <p><b>Davriy nashrlar</b></p> <p>“O'zbekiston konchilik xabarnomasi” – “Горный вестник Узбекистана”, “TDTU Xabarlari”, “Texnika yulduzlari”, “Узбекский геологический журнал”, “Горный журнал”, “Горный информационный аналитический бюллетень”, “Физико-технические проблемы горного дела”, “Подземные и шахтные строительства”, “Уголь”, “Минеральные ресурсы”, “Mining Jurnal”, “Miningin Canada”, “Mining and metallurgy”, “Mining Technology”).</p> <p><i>Internet saytlari:</i></p> <p>22. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>23. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>24. www.wikipedia.ru</p> <p>25. www.catalogmineralov.ru</p> <p>26. www.sandiegofotki.com</p> <p>27. www.magikbaikal.ru</p> <p>28. www.turism.irnd.ru</p> <p>29. www.artphotoclub.com</p> <p>30. www.fototerra.ru</p> <p>31. www.inpath.ru</p> <p>32. www.fotoart.org.ua</p> <p>33. www.geologiya.ru</p> <p>34. www.Ziyo.net.</p> <p>35. ht: //www/ ele brary.ru/ - научная электронная библиотека</p> <p>36. ht: //mggu. ru – Московский государственный геологоразведочный университет.</p>
	<p>Fan uchun mas'ul kafedra: «Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» Instruktor: B.M.Xolbayev – QarMII, «Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» kafedrasi professori.</p> <p>Kafedra joylashgan joyi: QarMII, «Geologiya va konchilik ishi» fakulteti binosi</p> <p>Telefon: +998934220073</p> <p>mail: <a href="mailto:xolbayev_b@mail.ru">xolbayev_b@mail.ru</a>.</p>
	<p>Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil “___” ____ dagi ___ - sonli bayonomasi bilan tasdiqlangan o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi</p> <p>Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) «Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» kafedrasining 2022 yil «___» ____ dagi ___ - son yig'ilishida hamda</p>

"Geologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil «\_\_\_»  
\_\_\_ dagi «\_\_\_» - son yig'ilishida muhokama qilinib Institut Uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ Sh.Sh.Turdiyev

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil «\_\_\_» \_\_\_ dagi \_\_\_ - sonli qarori bilan  
o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Geologiya va konchilik ishi

fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ T.N.Yarboboyev

«Kelishildi»:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: \_\_\_\_\_ Sh.R.Turdiyev

IZOH UCHUN



